
Farg'ona shahrida kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni betalofat o'tkazish, shuningdek "Yashil makon" loyihasi bo'yicha belgilangan reja asosida amaliy ishlar olib borilmoqda. Mazkur ishlar samaradorligini oshirish maqsadida beshta kichik

Bugun erta tongda bu boradagi ishlarni tizimli ravishda joyiga borib o'rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida tashkil etilgan ishchi guruh a'zolari ishtirokida saf ko'rigi o'tkazildi. Unda respublikadan, viloyat va shahar hokimligidan birlashtirilgan vakillar ham ishtirok etishdi.

Tadbir davomida sektorlar kesimida tuzilgan ishchi guruh a'zolariga shahardagi ijtimoiy soha ob'yektlari, ko'p qavatli uylar, mahallalardagi mavjud aholi yashash xonadonlari hamda korxonalar va tashkilotlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatini o'rganish, "Yashil makon" loyihasi bo'yicha hududlarga mevali va manzarali ko'chatlarni ekish va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni bajarish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Shundan so'ng, Farg'ona shahriga birlashtirilgan vakillar shahar hokimi Vosiljon Nazarov ishtirokida hududlarda olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdilar.

Ayni damda Ishchi guruhi a'zolari tomonidan ko'p qavatli uy-joylarning kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatiga o'rganilmoqda. Boshqaruv sevib kompaniyalari va shirkatlarning ishchi-xodimlari tomonidan aniqlangan muammolar bartaraf etilmoqda.

Shuningdek, hovli uy-joylarda kuz-qish mavsumiga ko'rilgan tayyorgarlik jarayonlari ham o'rganilib, bunda oziq-ovqat va ko'mir zahirasi, tabiiy gaz va elektr tarmoqlarining sozligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ishchi guruhi a'zolari ijtimoiy soha ob'yektlarida ham o'rganishlar olib borishmoqda. Maktablar, bog'chalar hamda boshqa ta'lim va tibbiyot muassasalarining isitish tizimlari, tarmoqlari sozligi mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqilmoqda. O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni shahar, viloyat va respublika miqyosida bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilanishi nazarda tutilgan.

2023-10-31 10:19:09